



## SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 6-noyabr

230-9-131-F/24

Shirin shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 2-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shahar hokimligi uchun ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan tovarlar xarid qilish hamda xizmatlar ko‘rsatishda eng arzon va sifatli mahsulotlar takliflarini o‘rgangan holda xarid qilinishini ta’minlash maqsadida,

1. Shahar hokimligida davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 85-moddasiga ko‘ra eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-tamoyillarini majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkazish hamda mahsulot yetkazib beruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi) tashkilot yoki korxonalarning eng yaxshi takliflarini elektron shaklda o‘rgangan holda haqqoniy qaror chiqarish yuklatilsin.
3. Shirin shahar hokimligi bosh hisobchisi Sh.Abduraxmanovaga tovarlar (xizmatlar) xarid qilishda e’lon, auksion savdo va konkurslarining Respublika Tovar-xomashyo birjasи elektron portaliga joylashtirish, shartnomalarni savdo natijalariga ichki tanlov komissiyasi qaroriga asosan tuzish, g‘aznachilik bo‘limiga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim qilish hamda g‘aznachilik ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng to‘lovlarni amalga oshirish topshirilsin.
4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari I.Maxmudov zimmasiga yuklatilsin.

**Shahar hokimi**



**N.Xazratkulov**

Shirin shahar hokimining  
2024-yil 6-noyabrdagi  
230-9-131-F/24-son farmoyishiga  
1-ilova

**Shirin shahar hokimligining xarid komissiyasi a'zolari haqida**

**MA'LUMOT**

	<b>Komissiya raisi:</b>		
	I.Maxmudov	-	Shirin shahar hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosari-shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
	<b>Komissiya a'zolari:</b>		
	F.Tursunboyev	-	Shirin shahar hokimining o'rinnbosari-shahar investitsiya, sanoat va savdo sho'ba boshlig'i
	F.Alimov	-	Shirin shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari
	D.Azimov	-	Shirin shahar hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari
	<b>Komissiya kotibi:</b>		
	G'.O'rozboyev	-	Shahar hokimligining xo'jalik mudiri